

BUHORO AMIRLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI

Masharifova Feruzabonu Ulug'bek qizi

"UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE"

Tarix yo'nalishi sirtqi 3 kurs 22.01 guruh talabasi

Email: feruzaxonolimova1992@gmail.com +998905408392

Annotatsiya: Maqola Buhoro amirligining davlat boshqaruvini tarixiy manbaalar asosida taxlil qiladi. Amir hokimiyati, markaziy va mahalliy boshqaruv organlari, diniy boshqaruvning siyosiy hayotdagi o'rni yoritilgan. Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan Buhoro amirligining davlat boshqaruvini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Buhoro amirligi, davlat boshqaruvi, amir, mahalliy hokimiyat, qozikalon, bekliklar, siyosiy tizim.

Kirish:

Buhoro amirligini mang'itlar sulolasiga mansub cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan hukmdorlar boshqargan. Amir hukmdor hisoblangan va hokimiyat avloddan-avlodga meros tarzida o'tgan. Amirlikning bosh ma'muriy markazi Buhoro shaxri bo'lgan. Rossiya bilan 1868- yildagi shartnoma Buhoro amirligi taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi. U siyosiy mustaqillikdan maxrum bo'lib, Rossiya protektoratiga aylanib qoldi. Garchi siyosiy mustaqilligidan maxrum bo'lsada Buhoro amiri o'z fuqarolari ustidan cheklanmagan hokimiyatni qo'lda saqlab qolgan edi. Buhoro amirining siyosiy faoliyatini bevosita nazorat qilish uchun Rossiya imperatorning 1885- yildagi farmoni asosida "Rossiya imperatorning siyosiy agentligi" (1886-1917) tashkil etilgan bo'lib, u 1868- yildagi shartnoma bajarilishini va amirning siyosiy faoliyatini nazorat qilib borgan.

XIX-asr Buhoro amirligi hududi Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tgan hududlar hisobiga qisqargan edi. Aholining soni 2 million kishi atrofida bo'lib, asosiy mashg'uloti hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik edi. Poytaxt Buhorodan tashqari Chorjoy, Kitob, Shaxrisabz, Devon kabi shaharlar amirlikning yirik savdo va hunarmandchilik markazi hisoblangan.

Buhoro amirligida ijro hokimiyati bosh vaziri qo'shbegi qo'lida bo'lgan. Viloyat va tuman hokimlari qo'shbegi tavsiyasi bilan tayinlangan. Barcha ijroiya hokimiyati qo'shbegi qo'lida edi.

Devonbegi - xonlikning moliya vaziri ishlarini boshqargan. Soliq va jarimalar undirilishini ham devonbegi amalga oshirgan.

Ko'kaldosh - (xon bilan bir onadan emgan kishi) butun amirlik hududida amirga va amirlikga nisbatan do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqidagi malumotlarni hukmdorga yetkazib turgan.

Mushrif- lavozimida ishlaganlar esa xonga in'om etilgan buyumlar va xarbiy anjomlarni ro'yxatga olib yozib borganlar.

Mirshab -bu tungi qorovullar vazifasini bajargan.

Dodxoh - fuqorolarni arz va shikoyatlarini tinglovchi hal etuvchi kerak bo'lsa xon yoki qo'shbegiga yetkazuvchi bo'lgan.

Inoq- bu lavozimda ishlagan amaldorlarning vazifasi amir farmoishlarini bek va boshqa tabaqalarga yetkazish bo'lgan.

Miroxpr-amirning ovchi qo'shinlarini tasarruf qiluvchilar ustida turgan xon ovlarini uyushtirish ishiga mutasaddi bo'lgan.

Dasturxonchi-amir huzurida uyushtirilgan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.

Kitobdor-amir kutubxonasi boshlig'i.

To'qsabo-amirning tungi sohibi bo'lgan harbiy mansabdor.

Parvonachi- biror shaxsni biror lavozimiga tayinlanganligi haqidagi yorliqni o'sha shaxsga yetkazuvchi amaldor.

Sadirlar- vaqf mulklarini boshqaruvchi mansabdor.

Shayxul islom - musulmon jamoasi boshlig'i, qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etishini ta'minlovchi amaldor. Bu lavozim avloddan-avlodga meros bo'lib ham kelgan.

Katta qozi- (qozi kalon) davlatning oliy qozisi. Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozi kalon "Shariat panoh" deb atalgan.

Muftiy qozi kalon -murakkab deb hisoblangan turli diniy-xuquqiy masalalar bo'yicha shariyat qonunlariga asoslanib fatvo chiqargan.

Asosiy qism:

Buhoro amirligi 15 beklikdan iborat bo'lgan edi. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yilgan hokimlar beklar idora qilar edi. Hokim va ularning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi. Ular mahalliy olinadigan soliqlar hisobidan berilar edi.

XIX-asr boshlariga kelib Buhoro amirligida davlat boshqaruvida xizmatkor amaldorlar tarkibi kengaydi. Faqat amir saroyining o'zida 300 yaqin amaldor xizmat qilar edi. Ular davlat xazinasidan maosh olar edilar va amirga qaram bo'lib, ularni ishga amirning o'zi tayinlar va ishdan olar edi. Shunday qilib, amaldorlarning taqdiri to'laligicha yuqori amaldorlar qo'lida edi.

Mahalliy ma'muriyat - amirlar, oqsoqollar, bekliklar hamda vakillari va amir farmonlarini ijro etishi shart bo'lgan ruhoniylardan iborat edi.

Davlatni himoya qilish uchun amirning xalq ko'ngililari va qo'shnlardan saralab olingan xos lashkarlari bo'lgan. Ularga to'pchiboshi rahbarlik qilgan. XIX-asr oxirgi kelib, amir lashkari shoshilinch yig'uvchi, yomon ta'lim ko'rgan va qoloq xarbiy qurollar bilan taminlanmagan dehqonlardan iborat bo'lgan. Bunday lashkarning bosh maqsadi zarur bo'lganida xalq qarshisida namoyishga yig'ilish endi. Lashkarning soni 11 ming sarboz, 200 zobitdan iborat edi, qurollari esa 1000 ta berdanka miltig'i va bir nechta to'plardan iborat bo'lgan.

Amirlikdagi dehqonlarning aksariyati nochorlikda kun kechirardi. Chunki yer va yerga ishlov berish vositalari amir va uning amaldorlari qo'lida edi. Davlat amaldorlari moddiy ta'minoti uchun zarur moliyaviy mablag'larni bekorga sarf qilardilar. Amir Abdulahad Peterburgga, imperator huzuriga katta sovg'a-salom bilan har yili qatnardi. Shuningdek, u Qrim va Kavkazga borganida qimmatbaho sovg'alarni va saroylarni xarid qilar edi. Bu odat ulkan sarf-xarajatlarni talab qilardi va ushbu xarajatlar oddiy aholi yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushardi.

Buhiro amirligida asosiy soliqlarni aholining 90%ga yaqinini tashkil etuvchi dehqonlar to'lar edi. Bu soliqlarni to'lash uchun ular savdogarlar, sudxo'rlar va yirik zamindorlarga tegishli yerlarida arzimagan haq evaziga mehnat qilishga majbur edilar. Natijada og'ir jabr-zulm bilan murosa qila olmagan xalq oshkora noroziliklarga jazm qilardi. Garchi bu norozilik chiqishlarining aksariyati stixiyali uyushmagan bo'lsada, ular o'z ahamiyatini yo'qotib borayotganini ko'rsatardi. Qolaversa dehqonlarning aksariyati soliqlarning ko'pligidan kasodga uchrab, qishloqlardan kelib yollanib ishlashga majbur bo'lganlar.

Amir Muzaffar hukmronligi davrida nohaqlik haddan tashqari oshib ketti. Bu davrda soliqqa tortishning natura shakli (maxsulot ko'rinishida) o'rniga naqd pul ko'rinishidagi yig'imlar asosiy o'rinni egallagan endi.

Amirlikda azaldan xiroj va zakot asosiy soliqlar bo'lsa-da, yerdan olinadigan xiroj solig'i miqdori ayrim viloyatlarda hosilning 40-50% ga yetardi. Bu miqdor amirlikning yirik daromadlarining yarmidan ko'pini tashkil etardi. Bog'lar va polizlardan olingan daromadlar uchun alohida yig'im-tanobona to'langan.

Dehqonlar ma'muriyat vakillari va ularning yerlarini egallab olishdan, mahalliy hokimiyat va sud hokimiyati hodimlarining poraxo'rliги hamda tovlamachiligidan aziyat chekishardi. Odatda, dehqonning soliq to'lashga puli bo'lmasa, uning mol-mulki tortib olinar edi. Kasodga uchrash, qashshoqlashish, amaldorlarning o'z vakolatini suiiste'mol qilishlari dehqonlarni qo'zg'alon ko'tarishga majbur qilar edi. Natijada amirlikdagi eng yirik qo'zlalonlardan biri 1885- yilda Baljuvon bekligda shijoatli va xalqparvar Vose ismli kishi raxnamoligida ko'tarildi. Ketma-ket ocharchilik yillardan keyin baljuvonlik dehqonlar ilk bora 1885- yilda mo'l hosil yig'ib olishgandi. Bunday soliq undirishni adolatsizlik deb bilgan dehqonlar uni to'lashdan bosh tortdilar. Amaldorlar zo'ravonligi va ijtimoiy zulm qurolli qo'zg'alonga undagan minglab dehqonlar Vose atrofida uyushdilar. 1885- yil iyul oyining oxirgi kunlarida qo'zg'alon ko'targan dehqonlar va amir Muzaffar lashkari o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Tayyorgarlik ko'rmagan va mehnat qurollari bilan ko'chaga chiqqan dehqonlar mag'lubiyatga uchradi. Qo'zg'alon yo'lboshchilari, jumladan, Vose ham qo'lga olinib, qatl etildi. 1888- yil Ko'lob bekligda boshlangan yirik

dehqonlar qo'zg'alonlari Pomir chegara qo'shinlarining yordami bilan bostirildi. 1889- yil may oyida Kalif bekligida ham qo'zg'alon bo'lib o'tdi.

XIX-asr oxirida Buhoro amirligi Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron va Kavkaz bilan savdo aloqalariga ega bo'lgan. Buhoro, Chorjoy, Karki, Termiz, Kogon (yangi Buhoro)da Rossiya firmalarning idora va omborxonalari mavjud edi. Rossiya va Buhoro amirligi o'rtasida tovar aylanishi yil sayin o'sib bordi. Buhoro amirligi hududi katta foyda keltiruvchi tranzit savdo uchun ham qulay edi. Rossiya va Afg'oniston o'rtasidagi barcha savdo yo'llari Buhoro amirligi orqali o'tar edi. Rossiya Buhoro orqali Afg'onistonga katta miqdorda movut, chinni buyumlar, baxmal, chit, gugurt va kerasin chiqarar edi. 1887- yil amirlik hududi orqali dastlabki temiryo'l o'tkazildi. Buhoroda 15 km masofa Yangi Buhoro stansiyasi qurilishi boshlab yuborildi. Bu yerda amir saroyi va Rossiya siyosiy agentining qarorgohi barpo etildi. Buhoro amirligi temiryo'l orqali Toshkent, Orenburg va Maskva bilan bog'langandi. 1888- yilga kelib Buhoro amirligi hududida rus qishloqlari vujudga kela boshladi. Buhoroda Rossiya davlat banki bo'limi ochildi. Bundan tashqari ekkita paxta tozalash zavodi, Yevropa namunasida ikkita mehmonxona barpo etildi. Eski Buhorodagi qo'shbegi uyi va Rossiya imperatorning siyosiy agentligi qarorgohi ilk paydo bo'lgan telefon aloqasi bilan bog'langan edi.

XX asr boshlarida Buxoro ijtimoiy hayotida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch paydo bo'lgan. 1- yosh buxoroliklar. 2- diniy mutaassiblar. Yosh buxoroliklar siyosiy harakat sifatida 1910- yildan faoliyat ko'rsata boshlagan. Bular Abduvohid Burxonov, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja, Abduqodir Muhiddinov, Musajon Saidjonov va boshqalar bo'lib, Buhoroni mustabid amir hukmronligidan qutqarib, respublika tuzumini o'rnatishga harakat qildilar. Yosh buxoroliklar Buhoroda yangi usul maktablarini tashkil qildilar, bu maktablar uchun turli darsliklar yozdilar. "Buhoroi sharif" va "Turon" gazetalari nashr qilindi. Ushbu nashrlar xalqni jaxolattan uyg'otish va ma'rifatga davat etish bilan mustaqillik g'oyalarini ham ko'tarib chiqdi. Amir Abdulahaddan so'ng Buhoro taxtini uning o'g'li Sayid Olimxon (1910-1929) egalladi.

1917- yil Rossiya fevral voqealari va u tufayli Buhoro siyosiy hayotdagi jonlanish, siyosiy o'zgarishlarning Buhoro amirligida ham takrorlanmasligi amirni ayrim islohotlarni amalga oshirishga undadi va farmon qabul qilindi. Farmonda odil sudlov, xiroj, zakot va boshqa soliqlarni undirishning barqaror asoslarini yaratish haqida so'z boradi. Amaldorlarga hizmat yuzasidan vazifalarini ijro etish chog'ida qo'shimcha ustama olish taqiqlanadi. Buning o'rniga davlat tomonidan qat'iy belgilab berilgan maosh ta'sis etildi.

1917- yil 8 aprelda jadidlar Karki va Buhoroda namoyishlar o'tkazishdi. Buhoroda namoyishga to'plangan 150 kishiga Fayzulla Xo'jayev va Abdurauf Fitrat rahnamolik qilishgan. Namoyishga chiqqanlar Arkkacha yetib kelishganida amir sarbozlari ularni to'xtatishga buyruq oldi. 200 piyoda va 300 otliq sarbozdan iborat amir qo'shni namoyishga chiqqanlarni tarqatib xibsga olaboshladi. Buhorodagi voqealar jadidlarni sergaklantirdi. Ma'rifatli hukmdor tariqasida namoyon bo'lgan Sayid Olimxonning xalq orasida hurmati qolmadi. Omon qolgan jadidlar 1917- yili bolsheviklar tomonidan egallangan Turkistonga qochishdi. 1920- yil yanvarida Toshkentda o'rnatilgan yosh buxoroliklarning so'1 qismi Fayzulla Xo'jayev rahbarligida "Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy buyrosi" ni tuzishdi. Ammo bu tashkilot nufuzli siyosiy kuchlarni o'zida mujassam etmas edi. Bu tashkilot O'rta Osiyoni butunlay zabt etib, uni bolsheviklar qo'l ostida bo'lgan yangi davlat tarkibiga qo'shib olishga harakat qilgan mustamlakachilarning kurash vositasiga aylandi.

Fayzulla Xo'jayev rahbarlig qilgan Yosh buxoroliklar va bolsheviklarning birgalikdagi harakatlari bilan Buhoro davlat to'ntarishi tayyorladi. Amir qo'shinini parokanda qilish bo'yicha ishlar ilob borildi. Mahalliy aholi orasida kuchli tashviqot yuritib boshlandi. Shu maqsadda "Tong" va "Uchqun" gazeta jurnallari nashr etildi. Yosh buxoroliklar amirni taxtdan aldarishning siyosiy va tashviqiy asislarini hozirlashga kirishdi. Ularning tashabbusi bilan 1920- yil 29- avgustda Chorjo'yda qo'zg'alon uyushtirildi. Bu yerda muvaqqat inqilobiy qo'mita tuzilib, u Rossiya hukumatidan yordam so'rab murojat qildi. Sovet esa yaxshi qurollangan qo'shin va mahalliy aholini dahshatga soluvchi harbiy aviatsiya bilan taminlangan harbiy qismlarni Buhoroga tashladi. Amir va uning qo'shinlari deyarli hech qanday qanday qarshilik qila olmadi. Bunday vaziyatdan chiqqa olmagan amir

Sayid Olimxon o'z oilasi va devonidagi amaldor va ayonlari bilan Afg'oniston tomonga qochib o'tdi. 1920- yil 2-sentyabrda bolsheviklar armiyasi qo'shinlari Buhoroga kirdi. 6 oktyabrda Buhoro Xalq Sovet Respublikasi va Fayzulla Xo'jayev boshchiligida birinchi hukumat Xalq Nozirlar Kengashi tuzilganligi e'lon qilindi.

Xulosa:

Shunday qilib Buhoro amirligi boshqaruv tizimi ananaviy islomiy qadriyatlarga asoslangan shaklda tashkil etilgan. Amirlikning siyosiy-ijtimoiy hayotida mahalliy hokimliklar va diniy ulamolar muhim o'rin egallagan. Buhoro XIX-asrning ikkinchi yarmida va XX-asr boshlarida taraqqiyparvar demokratik asosga ega bo'lgan o'ziga xos madaniy hayot vujudga kelganligi ko'rishimiz mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi" Bohodr Eshonov. Toshkent 2019
2. "O'zbekiston davlatchiligi tarixi" 1 Azamat Ziyov
3. "O'zbekiston tarixi" Q. Ergashev Toshkent 2015
4. "O'zbekiston davlatchiligi tarixi" 2 Boboyev. X Toshkent 2009